

ABDURAUUF FITRATNING “HIND SAYYOHI BAYONI” ASARIDA BUXORO IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTI VA TA’LIM INQIROZI**Erkinova Mohira Otaxon qizi,***O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti**2-bosqich magistranti*mohiraerkinova381@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning “*Bayonoti sayyohi hindi*” asari XX asr boshlaridagi Buxoro ijtimoiy-madaniy muhitining ilmiy-badiiy manbasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadid ma’rifatparvarligi sharoitida Fitrat tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti g’oyalari, ilmiy tafakkur erkinligi, diniy muhitdagi tafakkur inersiyasi va sxolastik madrasa ta’limi tanqidi o’rganiladi. Asar sayohat janri vositasida yozilgan bo’lsa-da, mazmunan sotsiologik, pedagogik va falsafiy tahlilni mujassam etgan ko’p qatlamli manba ekani asoslanadi. Fitrat jamiyat tanazzulining asosiy sababini tafakkur qoqligi va ta’lim tizimining hayotdan uzilgan shaklida ko’radi hamda “*usuli jadid*” maktablarini milliy uyg’onishning strategik vositasi sifatida talqin qiladi. Maqolada Fitrat qarashlarining mohiyati dinni inkor etishda emas, balki ilmiy tafakkurni cheklovchi tor talqinlarga qarshi qaratilgani ko’rsatib beriladi. Natijada asar XX asr boshlaridagi ma’naviy inqiroz, intellektual izolyatsiya va milliy taraqqiyot o’rtasidagi bog’liqlikni ochib beruvchi nazariy manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, Abdurauf Fitrat, Bayonoti sayyohi hindi, ta’lim islohoti, madrasa tanqidi, usuli jadid, ma’naviy inqiroz, ilmiy tafakkur, milliy uyg’onish, Buxoro ijtimoiy muhiti.*

Аннотация. В данной статье анализируется работа Абдурауфа Фитрата «*Баяноти саййюхи хинди*» как научно-художественный источник, отражающий социокультурную среду Бухары начала XX века. Исследование рассматривает идеи Фитрата о реформе образования в контексте нового Просвещения, свободы научного мышления, инерции мысли в религиозной среде и критики схоластического образования в медресе. Хотя работа написана в жанре путевых заметок, утверждается, что это многослойный источник, сочетающий в содержании социологический, педагогический и философский анализ. Фитрат видит главную причину упадка общества в отсталости мышления и разрозненной форме системы образования, и интерпретирует школы «*усули джадид*» как стратегический инструмент национального возрождения. В статье показано, что суть взглядов Фитрата заключается не в отрицании религии, а скорее в противодействии узким интерпретациям, ограничивающим научное мышление. В результате работа оценивается как теоретический источник, раскрывающий связь между духовным кризисом, интеллектуальной изоляцией и национальным развитием начала XX века.

Ключевые слова: *джадидизм, Абдурауф Фитрат, Баяноти Саййюхи Хинди, реформа образования, критика медресе, Усули Джадид, духовный кризис, научное мышление, национальное пробуждение, социальная среда Бухары.*

Abstract. This article analyzes Abdurauf Fitrat's work "*Bayanoti sayyohi hindi*" as a scientific and artistic source of the socio-cultural environment of Bukhara at the beginning of the 20th century. The study examines Fitrat's ideas of educational reform in the context of the new enlightenment, freedom of scientific thought, inertia of thought in a religious environment, and criticism of scholastic madrasa education. Although the work is written in the genre of travelogue, it is argued that it is a multi-layered source that combines sociological, pedagogical, and philosophical analysis in content. Fitrat sees the main cause of the decline of society in the backwardness of thought and the disconnected form of the education system, and interprets the "*usuli jadid*" schools as a strategic tool for national revival. The article shows that the essence of Fitrat's views is not in the denial of religion, but rather in the opposition

to narrow interpretations that limit scientific thought. As a result, the work is evaluated as a theoretical source that reveals the connection between the spiritual crisis, intellectual isolation and national development of the early 20th century.

Keywords: *Jadidism, Abdurauf Fitrat, Bayonati Sayyohi Hindi, educational reform, madrasa criticism, Usuli Jadid, spiritual crisis, scientific thinking, national awakening, Bukhara social environment.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston hududi, ayniqsa Buxoro amirligi siyosiy jihatdan mustaqil ko‘rinsa-da, ijtimoiy-ma‘naviy va intellektual taraqqiyot nuqtai nazaridan chuqur turg‘unlik holatini boshdan kechirayotgan edi. Shu bois bu davrni ko‘plab tadqiqotchilar “ma‘naviy inqiroz bosqichi” sifatida tavsiflaydilar. Aynan shunday murakkab tarixiy sharoitda jadid ma‘rifatparvarlari millat istiqbolini siyosiy kurashdan ko‘ra avvalo ong va tafakkur islohoti bilan bog‘ladilar. Ular nazarida jamiyatni yangilashning asosiy yo‘li — ta‘lim tizimini isloh qilish, ilm-fanni ommalashtirish va fikr erkinligini qaror toptirish edi.

Ana shu ma‘rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat bo‘lib, u jadidchilik g‘oyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqqan hamda ularni badiiy-publitsistik shaklda ommaga yetkazgan yirik mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Uning 1912-yilda Istanbulda nashr etilgan “Bayonoti sayyohi hindi” asari nafaqat jadid adabiyotining dastlabki namunalaridan biridir. Asar sayohat janrida yozilgan bo‘lib, hind sayyohi obrazi muallif uchun badiiy vosita vazifasini bajaradi. Tashqi kuzatuvchi timsoli orqali Fitrat Buxoro jamiyatining ichki tuzilishini, uning ijtimoiy qatlamlari, diniy muhit, ta‘lim tizimi va madaniy hayotini go‘yoki “tashqaridan turib” tahlil qiladi. Bunday usul muallifga jamiyatdagi illatlarni bevosita ayblov emas, balki ilmiy kuzatuv va mantiqiy xulosa tarzida bayon etish imkonini beradi. Shu jihatdan asar badiiy shaklda yozilgan bo‘lsa-da, mazmunan sotsiologik tahlil, pedagogik tanqid va falsafiy mushohadani o‘zida mujassam etgan ko‘p qatlamli manba hisoblanadi[1].

Adabiyotlar tahlili. Fitrat ushbu asar orqali jamiyat tanazzulining ildizini, avvalo, ta‘lim tizimidagi muammolar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tafakkur yangilanmas ekan, jamiyat ham yangilanmaydi. Shu sababli “Bayonoti sayyohi hindi”ni faqat adabiy yodgorlik emas, balki XX asr boshlaridagi Buxoro ijtimoiy-madaniy hayotining ilmiy-badiiy hujjati sifatida baholash mumkin. Asar bugungi kunda ham jadidchilik tafakkuri, ta‘lim islohoti g‘oyalari va milliy uyg‘onish jarayonlarini o‘rganishda muhim nazariy manbalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Fitrat Buxoroni tarixan islom ilmining yirik markazlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan shahar bo‘lishiga qaramay, XX asr boshlariga kelib bu yerda ilmiy muhit mazmunan tanazzulga uchraganini alohida ta‘kidlaydi. Muallif nazarida muammo ilmning mavjud emasligida emas, balki uning hayotiy ehtiyojlardan uzilib qolganidadir. Ulamolar faoliyati asosan tashqi diniy marosimlar, rasmiy taqvodorlik ko‘rinishlari hamda matnlar ustidagi mayda bahslar bilan cheklanib, ilmning amaliy va ijtimoiy ahamiyati ikkinchi

darajaga tushib qolgan. Fitrat bu holatni qisqa, ammo nihoyatda teran mazmunga ega jumla bilan ifodalaydi: “Bu yerda ilm ko‘p, lekin foydali ilm yo‘q. Bahs ko‘p, lekin haqiqatni izlash yo‘q” [1.150].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur fikr Fitrat ijtimoiy tanqidining kontseptual markazini tashkil etadi. Unda shakl va mazmun o‘rtasidagi nomutanosiblik fosh etiladi ya’ni tashqi ilmiylik saqlangan, biroq uning jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi mohiyati yo‘qolgan. H.Boltaboev qayd etganidek, Fitratning tanqidi dinga qarshi emas, balki din nomi ostida mustahkamlanib qolgan tafakkur qoloqligiga qarshi qaratilgan edi[5.132]. Demak, muallif diniy qadriyatlarni inkor etmaydi, balki ularning mazmunan yangilanishini talab qiladi. Shuningdek, asarda jamiyatdagi ma’naviy muhit yangilikka nisbatan qo‘rquv va shubha bilan tavsiflanadi. Ilmiy yangiliklar, tabiiy fanlarga oid qarashlar yoki ijtimoiy islohot g‘oyalari ko‘pincha “bid’at” tamg‘asi bilan rad etiladi. Bu holat ijtimoiy tafakkurning yopiq tizimga aylanishiga, tanqidiy fikrning yo‘qolishiga va intellektual inersiyaning kuchayishiga olib keladi. Natijada diniy ijtimoiy institutlar tarixiy sharoitga mos ravishda yangilanish o‘rniga, jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiruvchi omilga aylanadi. Shu tariqa Fitrat Buxoro muhitidagi ilmiy va diniy hayotni ichki islohot zarur bo‘lgan tizim sifatida talqin qiladi. Uningcha, haqiqiy ilm — inson hayotini yaxshilashga xizmat qiladigan, tafakkurni kengaytiradigan va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydigan bilimdir. Aks holda, ilm nomigagina mavjud bo‘lib, jamiyatni tanazzuldan qutqara olmaydi.

Fitrat ijtimoiy tanqidining eng keskin nuqtasi ta’lim tizimiga qaratilgan bo‘lib, u jamiyat tanazzulining ildizini aynan madrasa ta’limining mazmun va metodik jihatdan eskirgan shaklida ko‘radi. Muallif madrasalardagi o‘qitish jarayonini o‘ta murakkablashtirilgan, hayotiy ehtiyojlardan uzilgan va natijaviylik mezonlaridan mahrum tizim sifatida tavsiflaydi. Ta’lim jarayoni bilimni egallash emas, balki matnlarni mexanik yodlash, sharhlar va hoshiyalar ustida cheksiz bahs yuritish bilan cheklanib qolgan. Natijada talabalar yillar davomida nazariy grammatika va mantiqiy munozaralar bilan shug‘ullansalar-da, kundalik hayotda zarur bo‘lgan savodxonlik, mantiqiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalardan mosuvo bo‘lib qoladilar. Fitrat bu holatni milliy fojiga tenglashtiradi va shunday deydi:

“O‘n besh yil o‘qib ham bir xatni to‘g‘ri o‘qiy olmagan talaba — millatning yo‘qotilgan umridur”[1.102]. Mazkur iqtibos Fitrat pedagogik qarashlarining mohiyatini ochib beradi. Ta’lim shaxsiy kamolot vositasi bo‘lish bilan birga, millat taraqqiyotining strategik omilidir. Vaqt — milliy resurs sifatida talqin qilinadi, samarasiz ta’lim esa bu resursning isrof etilishidir. B. Qosimov Fitrat tanqidini bejizga “millatning vaqtini o‘g‘irayotgan ta’lim tizimiga qarshi ayblov” deb baholamaydi[3.78]. Bu yondashuv Fitrat tafakkurida pedagogika va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalarining o‘zaro uzviylikini ko‘rsatadi.

Fitrat tomonidan tilga olingan “Sharhi Mullo”, “Qofiya” kabi darsliklar oʻrta asr ilmiy anʼanalarining mahsuli boʻlib, vaqt oʻtishi bilan koʻp qavatli sharhlar va izohlar bilan haddan tashqari murakkablashib ketgan. Bunday matnlar bilan ishlash jarayonida asosiy fan mazmuni ikkinchi darajaga tushib, grammatik shakllar va istilohiy tafsilotlar ustuvorlik kasb etadi. Bu holat Fitrat tomonidan klassik sxolastika sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, Fitrat madrasa taʼlimini nafaqat pedagogik muammo, balki ijtimoiy taraqqiyotga toʻsqinlik qiluvchi tizimli omil sifatida koʻrsatadi. Uning fikricha, mazmunsiz murakkablik va natijasiz bahslar hukmron boʻlgan joyda tafakkur rivojlanmaydi, tafakkur rivojlanmagan jamiyat esa tarixiy jarayonda ortda qolishga mahkum boʻladi. Qolaversa, asarda geografiya, tabiiyot, tarix kabi dunyoviy fanlarning inkor etilishi jamiyatning intellektual izolyatsiyaga tushib qolganini ifodalovchi muhim badiiy detaldir. Fitrat bu jarayonni shunchaki oʻquv dasturidagi kamchilik sifatida emas, balki tafakkur doirasining torayishi va bilish ufqining sunʼiy ravishda cheklanishi sifatida talqin qiladi. Ilmiy bilimlarning rad etilishi — bu jamiyatning global ilmiy-madaniy jarayondan uzilishi, yaʼni oʻzini tarixiy taraqqiyot oqimidan ajratib qoʻyishi demakdir. Mudarris va sayyoh oʻrtasidagi suhbat epizodida yerning aylanishi haqidagi ilmiy haqiqatning “dinga zid” deya inkor qilinishi Fitrat tanqidining eng ramziy nuqtalaridan biridir. Bu dialog orqali muallif diniy aqidaparastlikning ilmiy tafakkurga qarshi qoʻyilganini ochib beradi. Vaholanki, tarixiy islom tamadduni oʻz davrida astronomiya, matematika va tibbiyot fanlari rivojiga katta hissa qoʻshgan edi. Fitrat koʻrsatayotgan muammo — dinning oʻzi emas, balki uning tor talqini asosida shakllangan tafakkur inersiyasidir [4.39].

Bu yerda ilmiy haqiqat bilan diniy talqinning qarama-qarshi qoʻyilishi aslida epistemologik inqirozni bildiradi: bilim manbalariga boʻlgan munosabat buzilgan, tajriba va kuzatuvga asoslangan ilmiy metod rad etilib, oʻrta asr tafakkur shakllari mutlaq haqiqat sifatida qabul qilingan. Natijada jamiyatda tanqidiy fikrlash zaiflashadi, yangilikni qabul qilish mexanizmlari izdan chiqadi va intellektual rivojlanish toʻxtaydi.

Fitrat ushbu holatni tor pedagogik yoki diniy masala doirasida emas, balki milliy xavf darajasida koʻradi. Uning fikricha, ilm-fandan uzilgan jamiyat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan boshqa kuchlarga qaram boʻlib qoladi. Intellektual zaiflik mustamlakachilikka zamin yaratadi, chunki ilmiy va texnologik ustunlikka ega jamiyatlar orqada qolgan hududlarni osonlik bilan boʻysundira oladi. Shu bois Fitrat ilmni milliy mustaqillikning poydevori sifatida talqin qiladi.

Demak, asardagi ushbu epizod oddiy bahs sahnasi emas, balki butun bir davr tafakkur inqirozining badiiy modeli boʻlib xizmat qiladi. U orqali Fitrat jamiyatni maʼnaviy va intellektual yakkalanishdan chiqarishning yagona yoʻli sifatida ilmiy tafakkur va zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirish zarurligini ilgari suradi.

Tahlillar va natijalar. Fitrat oʻz asarida mavjud ijtimoiy va taʼlimiy inqirozni keskin tanqid qilish bilan cheklanmaydi, balki muammoning aniq yechim yoʻlini ham

ko'rsatadi. Uning nazarida millatni tanazzuldan olib chiqadigan asosiy kuch — yangilangan ta'lim tizimidir. Shu bois u “usuli jadid” maktablarini milliy uyg'onishning strategik vositasi sifatida talqin qiladi. Bu maktablar Fitrat konsepsiyasida oddiy o'quv muassasasi emas, balki yangi tafakkur makonidir.

Fitrat ilgari surgan ta'lim modeli bir necha muhim tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, ta'lim ona tiliga yaqin bo'lishi zarur. Til — tafakkur vositasi sifatida bilimni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Murakkab va begona til muhiti esa bilimni yodlash darajasida qoldiradi, tafakkur rivojini cheklaydi. Ikkinchidan, o'qitish metodikasi tushunarli, tizimli va bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv o'rta asr sxolastikasidan farqli ravishda bilimni amaliy va hayotiy mazmun bilan bog'lashni nazarda tutadi.

Uchinchi muhim tamoyil — dunyoviy fanlarning o'quv jarayoniga kiritilishidir. Fitrat nazarida geografiya, tarix, tabiiyot, matematika kabi fanlar millatning dunyoqarashini kengaytiradi, uni global ilmiy jarayon bilan bog'laydi. Bu esa intellektual mustaqillikni shakllantiradi. Nihoyat, ta'lim tafakkur erkinligini ta'minlashi kerak. Ya'ni, o'quvchi faqat tayyor haqiqatlarni qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi subyektga aylanishi lozim.

Bu jihatlar Fitrat pedagogik qarashlarining modernistik mohiyatini ko'rsatadi. L. Xoliqov ta'kidlaganidek, Fitrat ta'lim konsepsiyasi “Sharq ma'naviy merosini inkor etmagan holda, Yevropa ilmiy metodologiyasini joriy etishga qaratilgan sintez modeli”dir [5]. Demak, u ko'r-ko'rona g'arbparastlikni emas, balki an'ana va modernlik uyg'unligini taklif qiladi.

Shu tariqa, Fitrat uchun “usuli jadid” — bu shunchaki yangi o'qitish usuli emas, balki millat tafakkurini yangilash, ijtimoiy ongini uyg'otish va tarixiy taraqqiyot yo'liga chiqish konsepsiyasidir.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, “**Bayonoti sayyohi hindi**” oddiy badiiy asar emas, balki XX asr boshlaridagi Buxoro jamiyatining ma'naviy-intellektual holatini aks ettiruvchi ilmiy-badiiy hujjatdir. Fitrat jamiyat tanazzulining ildizini siyosiy omillardan ko'ra chuqurroq — tafakkur tizimidagi qoloqlik va ta'limning mazmunan eskirgan tuzilishida ko'radi. Madrasa ta'limidagi sxolastika, dunyoviy fanlarning inkor etilishi va ilmning hayotdan uzilishi jamiyatni intellektual izolyatsiyaga olib kelgan asosiy omillar sifatida talqin qilinadi. Muallif tanqidi dinga emas, balki diniy qadriyatlar nomi ostida mustahkamlangan tafakkur inersiyasiga qaratilgan bo'lib, u ilmni milliy mustaqillik va taraqqiyotning poydevori sifatida ko'radi. Fitrat ilgari surgan “usuli jadid” konsepsiyasi esa yangi ta'lim modeli orqali shaxs tafakkurini yangilash, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va jamiyatni tarixiy taraqqiyot yo'liga olib chiqishga qaratilgan modernistik dastur sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Fitrat qarashlari jadidchilik harakatining nazariy asosini tashkil etib, ta'lim, tafakkur va milliy uyg'onish o'rtasidagi uzviy

bogʻlilikni ochib beradi. Asar bugungi kunda ham taʼlim islohoti, maʼnaviy yangilanish va ilmiy tafakkur erkinligi masalalarini oʻrganishda dolzarb nazariy manba sifatidagi ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Fitrat, A. (2001). *Tanlangan asarlar: II jild. Ilmiy-publitsistik asarlar*. Toshkent: Maʼnaviyat.
2. Boltaboev, H. (1996). *Fitrat va jadidchilik*. Toshkent: Fan.
3. Qosimov, B. (2002). *Milliy uygʻonish: Jasorat, maʼrifat, fidoyilik*. Toshkent: Maʼnaviyat.
4. Alimova, D. A. (2009). *Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati*. Toshkent: Oʻzbekiston.
5. Xoliqov, L. (2015). *Abdurauf Fitrat va uning maʼrifiy islohotlari*. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
6. Behbudiy, M. (1913). *Tanlangan asarlar*.

